



**HHBOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA O'QISH SAVODXONLIGINI
RIVOJLANTIRISH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI**

Xo'jamatova Dildoraxon Baxromjon qizi

Xalqaro Nordik Universiteti

Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi(boshlang'ich ta'lim)

2-bosqich magistranti

Annotatsiya. *Mazkur tezisdagi boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini shakllantirish va rivojlantirishning samarali usullari tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida o'quvchilarning o'qishga bo'lgan qiziqishini kuchaytiruvchi, ifodali va tushunib o'qish ko'nikmalarini mustahkamlovchi metodik yondashuvlar sinovdan o'tkazildi. Eksperimental guruhda o'tkazilgan amaliy mashg'ulotlar orqali ilg'or texnologiyalar va innovatsion usullar asosida yuqori natijalarga erishildi. Olingan natijalar boshlang'ich ta'lim tizimida o'qish savodxonligini oshirish bo'yicha samarali tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar: *boshlang'ich ta'lim, savodxonlik, o'qish texnikasi, metodika, tajriba.*

Аннотация. *В данном тезисе рассмотрены эффективные подходы к формированию и развитию читательской грамотности у младших школьников. Экспериментальные занятия были направлены на развитие интереса к чтению, выразительности и осмысленного восприятия текста. Применение инновационных технологий и методик в учебном процессе позволило достичь позитивных результатов в экспериментальном классе. Полученные данные могут быть использованы для совершенствования методических рекомендаций по повышению уровня грамотности в начальных классах.*

Ключевые слова: *начальное образование, грамотность, техника чтения, методика, эксперимент.*

Abstract. *This thesis explores effective strategies for developing reading literacy among primary school students. Experimental sessions focused on enhancing interest in reading, improving expression, and fostering comprehension skills. The implementation of innovative pedagogical approaches led to notable improvements in the experimental group. The findings provide practical guidance for improving literacy practices in early education and serve as a methodological foundation for future research in this area.*

Key words: *primary education, literacy, reading technique, pedagogy, experiment.*

KIRISH

So'nggi yillarda dunyo bo'yicha ta'lim tizimidagi asosiy islohotlardan biri – o'quvchilarning o'qish savodxonligini oshirishga qaratilmoqda. Xususan, YuNESKO va PIRLS ya'ni boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini xalqaro baholash loyihasi kabi tashkilotlar tomonidan olib borilayotgan tahlillar, o'quvchilarning matnni chuqur tushunish, izohlay olish va xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlantirish ta'limda



hal qiluvchi omilga aylanganini ko'rsatmoqda. Bugungi zamonaviy ta'limda o'qish faqat tovush chiqarib o'qish emas, balki matn mazmunini tahlil qilish, fikr yuritish, muhokama qilish va o'rganilgan bilimni hayotda qo'llay olish qobiliyatlarini o'z ichiga oladi.

Boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, matn bilan ishlash ko'nikmalari, mantiqiy tahlil, xotira va mulohaza yuritish qobiliyatlarini shakllantirish dolzarb vazifaga aylangan. O'qish savodxonligida matnni o'qish va tushunish, uni tahlil qilish, o'z fikrini erkin bildirish, ma'lumotni o'zlashtirish va undan foydalanish tushuniladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari savodxonlikning shakllanishida eng muhim va hal qiluvchi bosqichda turadi. Bu davrda o'quvchilar harf tanish va matn o'qish bosqichidan o'tib, fikr bildirish, xulosa chiqarish kabi ko'nikmalarni egallashni boshlaydilar. Shu bois, o'qish savodxonligini rivojlantirish usullarini takomillashtirish — bu bosqichda nafaqat o'quvchilarning individual o'quv faoliyatini kuchaytiradi, balki ularning mantiqiy fikrlashi, nutq madaniyati va mustaqil ta'lim olish qobiliyatlariga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Boshlang'ich ta'lim bosqichi o'quvchilarda mustaqil o'qish, tushunish va fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Aynan shu davrda o'quvchining o'qishga bo'lgan qiziqishi, matn bilan ishlash ko'nikmalari, fikr bayon etish malakalari shakllanadi. Lekin, amaldagi dars jarayonlarida ba'zan bu ko'nikmalarni rivojlantirishga yetarli e'tibor berilmaydi. Natijada, o'quvchilar matnni o'qisa ham, uning mazmunini to'liq anglamaslik, fikrni aniqlik bilan ifoda eta olmaslik holatlari kuzatilmoqda va boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish savodxonligini rivojlantirishga oid yangicha, samarali metodlarni o'rganish va amaliyotga joriy etish zarurati tug'ilmoqda.

Yuqoridagi fikrlardan shuni aytish joizki, boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ishlovchi o'qituvchilar uchun o'qish savodxonligini rivojlantirishga oid aniq metodik tavsiyalarni ishlab chiqish, dars jarayonini takomillashtirish va amaliyotda qo'llash mumkin bo'lgan yondashuvlarni taqdim etish muhim vazifalardan biridir. Ushbu tadqiqot natijalari orqali nafaqat o'quvchilarning o'qish bo'yicha bilim va ko'nikmalari mustahkamlanadi, balki o'qituvchilarning metodik salohiyati ham ortadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODOLOGIYASI

O'qish savodxonligi — bu o'quvchining yozma matnni o'qib tushunish, unga munosabat bildirish, asosiy g'oyani ajratish, matn ustida mustaqil ishlay olish, tahlil qilish va real hayotda qo'llay olish qobiliyatini anglatadi. UNESCO tomonidan taqdim etilgan ta'rifda quyidagicha izoh berilgan: “Savodxonlik — bu shaxsning matnni o'qish, tushunish, tahlil qilish, fikr bildirish va undan turli maqsadlarda foydalanish ko'nikmalarining majmuidir.”⁶⁹ Haqiqatdan ham savodxonlik faqat o'qish va yozishda iborat bo'libgina qolmay, o'quvchilarning erkin fikr bildirishlari, tahlil qila olish ko'nikmalaridir.

A.N. Jumayev esa savodxonlikni “bilimlarni faqat qabul qilish emas, balki ularni qayta ishlash va amalda qo'llay olish malakasi” sifatida tavsiflaydi.⁷⁰ Savodxon o'quvchi

⁶⁹ UNESCO. Literacy in the Digital Age. Global Report. 2017.

⁷⁰ Jumayev A.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. — Toshkent: TDPU, 2020



har qanday bilimni osongina o'zlashtiradi, qo'llash mumkin bo'lgan o'rinlarda qiyinchiliklarga duch kelmaydilar.

Sh.Sh. Shodmonov fikriga ko'ra, interfaol metod "o'quvchilarning bilim olish jarayonida faol qatnashishini ta'minlaydi, mustaqil fikrlash, muammoni hal qilish, muloqotga kirisha olish kabi kompetensiyalarni shakllantiradi".⁷¹

Tadqiqot doirasida interfaol metodlar o'quvchilarni o'qishga jalb qilish, ularning savodxonligini oshirish, mustaqil fikrlashga va ijodiy yondashishga undovchi vosita sifatida qo'llaniladi.

Boshlang'ich ta'lim – bu o'quvchilarning tafakkuri, nutqi, mustaqil fikrlashi va ijtimoiy ongini shakllantirishda muhim rol o'ynovchi ta'lim bosqichidir. Boshlang'ich ta'limda beriladigan bilimlar bola tafakkurining shakllanishi, savodxonlik, nutqiy kompetensiyani rivojlantirish, mustaqil fikrlashga tayyorlashda asosiy poydevor hisoblanadi.⁷²

K.D.Ushinskiy tez o'qish matnini tushunishdan ajralib qolmasligi lozimligini ta'kidlaydi. O'qish tezligi matnini tushunish tezligi bilan muvofiq ravishda o'sishi kerak. Tez o'qish ongli idrok etishni ta'minlaydigan o'qishdir. Og'zaki nutq tempiga mos keladigan o'qish tempi normal tezlik hisoblanadi. O'ta tez o'qish va o'ta sekin o'qish matn mazmunini tushunishni qiyinlashtiradi. O'qish tezligi bir dakikada uqiladigan so'zlar miqdori bilan belgilanadi. 1 - sinf: 1 yarim yillikda bo'g'inlab o'qiydi.

2-yarim yillik oxirida notanish matndan 20-25 so'z .

2-sinf: 1-yarim yillikda 25-30 so'z. 2-yarim yillikda 40-50- so'z.

3-sinf : 1-yarim yillikda 50-60 so'z. 2—yarim yillikda 65—70 so'z.

4-sinf: 1-yarim yillikda 70-80 so'z. 2-yarim yillikda 80-90 so'z

Ongli o'qish – asar mazmunini, asarning g'oyaviy yo'nalishini, timsollarini , badiiy vositalarini rolini tushunib o'qish ongli o'qish deyiladi. Bola asarda tasvirlangan voqea-xodisalarga munosabat bildirsa, ongli o'zlashtirgan bo'ladi.

Ifodali o'qish – asarni uning g'oyasiga, yozuvchining niyatiga mos ravishda, o'qish, asar jozibasini ifodalab, ravon aniq, to'g'ri o'qish ifodali o'qish deyiladi.

Intonatsiya bilan o'qish – urg'u, temp, to'xtam, ovozning baland – pastligining yeg'indisidir. Bular og'zaki nutq elementlaridir. Bu orqali qahramonlarining turli kayfiyatlari, ichki kechinmalari ifoda etiladi.

Nutq malakalari – bu o'quvchining og'zaki va yozma shakldagi fikrini mantiqiy, izchil, grammatik to'g'ri va ifodali tarzda bayon qilish qobiliyatidir.

O'qish savodxonligi bilan nutq malakalari chambarchas bog'liq bo'lib, matnini to'g'ri anglash, savollarga javob berish, qayta hikoya qilish, shaxsiy munosabat bildirish kabi jarayonlar aynan nutq malakalari asosida amalga oshiriladi⁷³.

⁷¹ Shodmonov Sh.Sh. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: "Fan va texnologiya", 2019.

⁷² O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. (2020).

⁷³ Juraeva Z. (2019). Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: "Fan va texnologiya".



Bundan ko'rinib turibdiki, o'qish savodxonligi — bu shunchaki harf tanish yoki tovushlarni bog'lash emas, balki yuqori darajadagi mantiqiy va kognitiv jarayon bo'lib, o'quvchining funksional savodxonligiga ya'ni o'qilgan ma'lumotlarini hayotta ishlata olish qobiliyatiga yo'l ochadi. Bu savodxonlik turining mazmuni hozirgi zamon raqobatbardosh, ijtimoiy faollikni talab qiladigan dunyoqarashga ega shaxslarni tayyorlashda muhim omildir.

Ushbu tadqiqotda asosiy tushunchalar savodxonlik, boshlang'ich ta'lim, rivojlantirish, takomillashtirish o'zaro bog'liq holda tahlil qilinadi. Bu munosabatlar tadqiqotda qo'llanilgan metodlar ya'ni kuzatish, test, suhbat, eksperiment orqali aniqlanadi. Bolaning bilim olishi, dunyoqarishini shakllantirishi va shaxs sifatida rivojlanishi uchun zarur bo'lgan vosita o'qishdir. O'qish orqali bola nafaqat axborot oladi, tafakkur qilishi, tasavvuri va his – tuyg'ulari ham rivojlanadi. Shu sababdan ham o'qish faoliyatini bosqichma – bosqich, qiziqarli va mazmunli shaklda yo'lga qo'yish muhimdir. Bundan tashqari dars davomida o'quvchilarni ichki va tashqi rag'batlari ham muhimdir. Ichki rag'bat bu – o'quvchilarga beriladigan motivatsiyasidir ya'ni o'quvchining o'qishga bo'lgan qiziqishini rag'batlantiruvchi ichki kuchdir. Motivatsiya orqali o'quvchilar bilim olishga intiladi, o'qishga nisbatan ijobiy munosabat shakllanadi. O'qish savodxonligini shakllantirishda motivatsiya — asosiy harakatlantiruvchi kuch hisoblanadi.

Mukofotlash ya'ni o'quvchilarni harakatlari uchun maqto'v, sovrin yoki ularning motivatsiyasini oshirishda samarali vosita hisoblanadi. Motivatsiyali o'quvchi o'quv fanlariga ko'proq e'tibor beradi, materialni chuqurroq o'zlashtiradi, muvaffaqiyatsizliklarni maqsad sari vaqtincha to'siqlar sifatida qabul qilib, osonlikcha engib o'tadi. Shu tariqa, shaxsiy o'sish uchun asos yaratiladi. Ta'limdagi va kelajakdagi martabadagi muvaffaqiyatlar belgilanadi. Toshkent davlat pedagogika universiteti olimlari tomonidan 2023-yilda olib borilgan tadqiqotda aytilishicha, motivatsiyali o'quvchilarning savodxonlik darajasi 28% yuqoriroq bo'ladi.⁷⁴

O'quvchilarning o'qish motivatsiyasini oshirishda mukofotlarning roli haqida so'z yuritadilar. Tadqiqot mukofotlarning o'quvchilarning tashqi motivatsiyasidan ichki motivatsiyasiga o'tishiga yordam berishini ko'rsatadi, shuningdek, mukofotlarning o'quv muhitida ijobiy o'zgarishlar yaratishda muhimligini ta'kidlaydi.⁷⁵ Tadqiqot jarayonida ham o'quvchilarni motivatsiyasini oshirib dars o'tilgan kun bilan oddiy tartibdagi dars o'tilgan kunlardan samaradorligi yuqori bo'ldi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida darslarni tashkil qilishda motivatsiya o'qituvchi uchun eng natijaviy usul hisoblanadi.

XULOSA

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish savodxonligini rivojlantirish usullarini takomillashtirish yo'llari ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga

⁷⁴ Ta'lim va taraqqiyot jurnal, Toshkent davlat pedagogika universiteti, 2023, №1, s. 78.

⁷⁵ "Enhancing Learning Motivation in Elementary Schools: The Impact and Role of Rewards" 2023, Roslida Sigalingging, Hotma Nababan, Alex Putra, Mandasari Nababan



ega. O'qishni o'rgatishda individual yondashuvni kuchaytirish, o'quvchilarning qiziqishlarini hisobga olish va interaktiv metodlardan foydalanish o'qish ko'nikmalarini tez va sifatli shakllantirishga yordam beradi. Zamonaviy texnologiyalarni ta'lim jarayoniga joriy etish, masalan, multimedia vositalari va elektron o'quv materiallari, o'quvchilarning diqqatini jalb qilish va mustaqil o'qishni rag'batlantirish imkonini beradi. Shuningdek, ot-onalar va o'qituvchilar o'rtasida samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish, o'qish jarayonini doimiy qo'llab-quvvatlash va motivatsiyani oshirishda muhim rol o'ynaydi. Ta'lim dasturlarini doimiy ravishda yangilab borish va o'qituvchilarning malakasini oshirish ham o'qish savodxonligini rivojlantirishda muhim omillardir. Shu tarzda, o'qish savodxonligini takomillashtirish bolalarning ta'limga bo'lgan qiziqishini oshirib, ularning kelajakdagi muvaffaqiyatlariga poydevor yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Oliy Ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni PF-5847 08.10.2019. Manba: www.gov.uz
2. Azizxo'jayeva, N. (2020). Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti
3. Shodmonqulova, M. (2018). Boshlang'ich sinfda o'qish va savodxonlik darslarini tashkil etish. Toshkent: O'qituvchi.
4. Hasanboeva, M. (2022). O'qituvchilarning interfaol metodlardan foydalanish samaradorligi. Boshlang'ich ta'lim jurnali, 3(2), 45–50.
5. Usmonova, Z. (2021). O'qish savodxonligini rivojlantirishda o'yinli metodlarning o'rni. Ta'limda innovatsiyalar, 5(1), 34–39.
6. Dewey, J. (2004). Democracy and Education. New York: Dover Publications.
7. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge, MA: Harvard University Press.
8. Natsionalna ta'lim dasturi (2022). Boshlang'ich ta'lim standarti. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi.
9. Rahimova, D. (2023). Boshlang'ich ta'limda metakognitiv strategiyalarning ahamiyati. Pedagogika va Psixologiya Jurnali, 6(4), 50–55.